

ISLOMDA AYOL MAQOMI

Murtazoyeva Robiya No‘monovna

Axborot texnologiyalar va menejment universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 1-kurs BT-29-24-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom dinida ayollarning o‘rni, ularning jamiyatdagi huquq va majburiyatlari, shuningdek, oiladagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maqolada ayollarning ta‘lim olish huquqi, mehnat faoliyati va o‘z shaxsiy mulkiga egalik qilish huquqlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ayollar huquqlari, Qur‘on, hadis, ayollar va ta‘lim, tenglik, adolat, islomiy qadriyatlar.

THE ROLE OF WOMEN IN ISLAM

Abstract: This article is about the role of women in islam, their rights and obligations in society, as well as their importance in the family. The article provides information on women's right to education, emploment and ownership of their own property.

Key words: Women's rights, Qur'an and Hadith, women and education, women in society, equality and justice, Islamic values.

РОЛЬ ЖЕНЩИНЫ В ИСЛАМЕ

Абстракт: Это статья о роли женщин в исламе, их правах и обязанностях в обществе, в семьи. В статье представлена информация о праве женщин на образование, трудоустройство и владение собственным имуществом.

Ключевые слова: Роль женщин в исламе, права женщин, Коран и Хадисы, женщины и образование, женщины в обществе, равенство и справедливость, исламские ценности.

KIRISH

Ayolning jamiyatdagi o‘rni va roli har doim muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. Islom dini insoniyatga yo‘riqnoma sifatida tushirilgan bo‘lib, unda ayolning maqomi, huquqlari va burchlari aniq belgilangan. Qur‘on va hadislarda ayollarni ulug‘lash, hurmat qilish va ularning huquqlarini himoya qilishga oid ko‘plab ko‘rsatmalar keltirilgan. Afsuski, ba‘zan bu tamoyillar noto‘g‘ri talqin qilinishi natijasida Islom dinida ayollarning o‘rni

haqida turli tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Ushbu maqolamiz islomda ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy o'rni yondashuvini tushuntirishga qaratilgan. Ayollarning o'ziga xos huquq va mas'uliyatlari Qur'on va sunnat asosida qay darajada himoya qilingani ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Islomda ayolning o'rnini yorituvchi adabiyotlar ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, Qur'on va hadislar ushbu mavzuning asosiy manbalari hisoblanadi. Qur'oni Karimda ayollarning ijtimoiy maqomi va huquqlari haqida ko'plab oyatlar keltirilgan. Jumladan "Niso" surasi ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'kidlaydi va ularning huquq hamda burchlarini aniq belgilaydi. Shuningdek, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayoti va so'zlaridan tashkil topgan hadislar ham mavzuning muhim manbasi hisoblanadi. "Eng yaxshilaringiz o'z xotinlariga eng yaxshi muomalada bo'lganingizdir" (Imom Termiziy) kabi hadislar erkaklarning ayollarga nisbatan mas'uliyatini ulug'laydi. O'zbek olimlari manbalari orasida esa Abdurauf Fitratning asarlari, ayniqsa, "Ayollar tarbiyasi" nomli asari milliy mentalitet va diniy qadriyatlarining uyg'unligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, islom ayollarni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida ko'radi va ularga keng imkoniyatlar taqdim etadi. Bu manbalar ayollarni qadrlash va hurmat qilish tamoyillarini har tomonlama yoritib beradi.

Mazkur maqolani tayyorlashda ilmiy - tahliliy, tarixiy va huquqiy yondashuv usullari qo'llaniladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Islomda ayollarning o'rni, ularning huquq va burchlarini yoritish hamda zamonaviy talqinlarni aniqlashdir. Qur'oni Karim oyatlari va Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadislarini tahlil qilish orqali Islomda ayollarga bo'lgan yondashuvning asoslari o'rganildi. Islomning ayollar huquqlarini qo'llab-quvvatlovchi, ularning huquqlarini adolatli himoya qilish tamoyillarini tushunishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Islom dini ayol va erkak o'rtasidagi tenglik va adolat tamoyillarini ilgari surib, har ikki jins vakillarining jamiyatdagi o'rnini belgilab bergan. Ayollar oilaviy hayotda, iqtisodiy faoliyatda, ilm-fan va manaviyat sohalarida muhim o'rin tutadi. Qur'on oyatlari va Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadislarida ayollarni hurmat qilish, ularga mehribon bo'lish va ularning huquqlarini taminlash haqida ko'plab dalillar mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, islom ayollarni kamsituvchi emas, balki ularning huquqlarini himoya qiluvchi dindir. Ammo ba'zi tarixiy va ijtimoiy sharoitlar natijasida bu tamoyillar noto'g'ri talqin qilinib, ayrim jamiyatlarda ayollarga nisbatan nohaqliklar sodir etilgan. Aslida, Payg'ambarimiz (s.a.v.) davrida ayollarning ta'lim olishga, o'z mulkiga egalik qilishga, ish yuritishga va jamiyatda faol ishtirok etishga bo'lgan huquqlari aniq belgilangan edi.

Bugungi kunda ham islomiy qadriyatlarni to‘g‘ri anglash va tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollarning bilim olish, o‘z huquqlaridan foydalanish va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi diniy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlanadi. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ayollarning ta‘lim olishi, jamiyatdagi faolligi, rahbarlik lavozimlariga saylanishi va ijtimoiy hayotda faol ishtiroki uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shunday ekan, islom talimotini chuqur o‘rganib, uni zamonaviy hayotga mos ravishda tushunish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, islom ayolni nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning tayanchi sifatida e‘zozlaydi. Ayolga bo‘lgan e‘tibor faqat diniy mas‘uliyat emas, balki, milliy qadriyatlarimizning ham ajralmas qismidir. Ayolning hurmati va huquqlari faqat qonunlarda emas, balki, insonlarning qalbida va jamiyat ongida mustahkam o‘rin olishi lozim. Bu tamoyillar hayotga to‘g‘ri tadbiq etilsa, jamiyatda nafaqat ayollar, balki butun insoniyat farovonligiga xizmat qiladi.

XULOSA

Islom dini ayolni oilaning yuragi, jamiyatning tayanchi sifatida ulug‘laydi. Qur‘on va Hadislarda ayolning sha‘ni, huquqlari va mas‘uliyatlari aniq belgilangan bo‘lib, ular nafaqat oilaviy hayotda, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ham faol bo‘lishiga imkon beradi. Islom ayollarni nafaqat himoya qiladi, balki ularning ma‘naviy va ilmiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda ba‘zi jamiyatlarda ayollarning o‘rni cheklangan yoki noto‘g‘ri talqin qilingan holatlar uchrashi mumkin. Biroq, Islomning asl mohiyatiga qaytsak, ayollar jamiyatda teng huquqli, bilim olish va rivojlanish huquqiga ega shaxslar ekanini anglaymiz. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari bunga yorqin misoldir: U zot qiz farzandni tarbiya qilishni jannatga olib boruvchi ulug‘ savob, deb bilganlar, xotinlariga mehr-muhabbat va hurmat ko‘rsatib, ularni ilm olishga undaganlar².

Shu bois, zamonaviy musulmon jamiyatlari ayollar uchun ta‘lim, kasbiy rivojlanish va shaxsiy erkinlik imkoniyatlarini yaratish orqali Islomning asl qadriyatlarini tiklashlari zarur. Zero, ayol tarbiyalagan avlod – millat kelajagini belgilaydi. Ayolning ilmi, fazilati va odobi jamiyatning komillikka yetishishida muhim omildir. Demak, biz Islom ta‘limotlarini to‘g‘ri tushunib, ayollarning qadr-qimmatini munosib baholashimiz va ularning jamiyatdagi faolligini qo‘llab-quvvatlashimiz lozim.

² Imom al-Buxoriy – "Sahih al-Buxoriy", Nikoh kitobi, 5185-hadis. Dar al-Kutub al-Ilmiyah, Beyrut, Livan, 2013.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qur’oni Karim – O‘zbekiston musulmonlari idorasi nashri, Toshkent, 2017-yil.
2. Imom al-Buxoriy – "Sahih al-Buxoriy", Nikoh kitobi, 5185-hadis. Dar al-Kutub al-Ilmiyah, Beyrut, Livan, 2013-yil.
3. Imom Muslim – "Sahih Muslim", Ilm kitobi, 2633-hadis. Dar Ihya at-Turath al-Arabi, Beyrut, Livan, 2012-yil.
4. Yoqubov, A. (2021). "Islom va ayollarning jamiyatdagi o‘rni". Toshkent: Movarounnahr nashriyoti.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. (2017). "Tafsiri Hilol". Toshkent: Hilol nashriyoti.
6. Rahmatullayev, Z. (2020). "Oila va jamiyat Islomda". Toshkent: Sharq nashriyoti.
7. Nasr, S. H. (2002). "The Heart of Islam: Enduring Values for Humanity". Harper San Francisco.
8. Esposito, J. L. (1998). "Women in Muslim Family Law". Syracuse University Press.
9. Abbosov, S. (2015). "Islomda ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari". Toshkent: Ma’rifat nashriyoti.
10. Kamoliddinov, R. (2020). "Islomning ijtimoiy va axloqiy tamoyillari". Toshkent: Yangi asr avlodi.
11. Imom Termiziy – "Sunan at-Termiziy", 1163-hadis. Dar al-Kutub al-Ilmiyah, Beyrut, Livan, 2011-yil.
12. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf – "Oila baxti". Hilol-Nashr, Toshkent, 2010-yil.
13. Allanazorov, M. K. (2025). THE INTERACTION OF RATIONALITY AND IRRATIONALITY IN ISLAMIC PHILOSOPHY. *SCHOLAR*, 3(1), 102-107.